

Xizmatlar sohasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-iyun

Raqamlar:


- 2018 yil yanvar-iyun oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi - **4473,4 mlrd. so'mni** tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 130,4 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1197,2 ming so'mni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omiliidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtini tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida Samarqand viloyatida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 4473,4 mlrd.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,3 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiyligi hajmida eng katta hajm, savdo xizmatlari (1419,6 mlrd.so'm) tashkil etadi.


Ko'rsatilgan xizmatlar hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm



Xizmatlar sohasida xizmat hajmining oshishi bir qator omillarning ta'siri bilan izohlanadi. Jumladan, bozorda yangi turdag'i xizmatlarning paydo bo'lishi, masalan: kredit kartalari orqali to'lovlari, internet savdo, yangi savdo markazlari, mehmonxonalarning tashkil etilishi, ta'lif xizmatlarini kengaytirish, dam olish sohasidagi tanloving kengayishi shular jumlasidandir.

2018 yil yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari Samarqand shahrida (107,4 %), Tayloq (108,5 %), Urgut (107,2 %), Samarqand (106,8 %), Jomboy (106,1) tumanlarida qayd etildi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari Qo'shrabot (102,1 %), Nurobod (103,3 %), Paxtachi (103,4 %), Oqdaryo (103,8 %), Ishtixon (103,8 %), Kattaqo'rg'on (103,8) tumanlarida kuzatildi.

**2018 yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**


	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Samarqand viloyati	4473,4	106,3
Samarqand sh.	2139,4	107,4
Kattaqo'rg'on sh.	82,1	103,9
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	124,2	103,8
Bulung'ur	153,3	105,6
Jomboy	117,3	106,1
Ishtixon	160,2	103,8
Kattaqo'rg'on	162,1	103,8
Qo'shrabot	83,0	102,1
Narpay	125,1	104,5
Payariq	165,0	105,3
Pastdarg'om	238,2	105,3
Paxtachi	82,0	103,4
Samarqand	252,4	106,8
Nurobod	94,9	103,3
Urgut	321,6	107,2
Tayloq	172,6	108,5

Shahar va tumanlar o'rtaida eng katta xizmatlar hajmi Samarqand shahri (2139,4 mlrd.so'm) va Urgut tumaniga (321,6 mlrd.so'm) to'g'ri keladi.

Eng past hajmlar Kattaqo'rg'on shahri (82,1 mlrd.so'm) va Paxtachi (82,0 mlrd.so'm), Qo'shrabot (83,0 mlrd.so'm) tumanlarida kuzatildi.

Shahar va tumanlar o'rtasida Samarqand shahri yetakchi o'rinni egallaydi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmida Samarcand shahrining ulushi 47,8 % ni tashkil qiladi. Shu bilan birga, xizmatlar umumiyligi hajmida hududlar bo'yicha eng yuqori ulushlarni Urgut (7,2 %), Samarcand (5,6 %), Pastdarg'om (5,3 %) va Tayloq (3,9 %) tumanlari tashkil etadi.


**2018 yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha jami xizmatlar hajmida shahar va tumanlarning ulushi
(jami hajmga nisbatan), %**



Shahar va tumanlar o'rtasida eng past ulush Kattaqo'rg'on shahri (1,8 %), Paxtachi (1,8 %), Qo'shrabot (1,9 %), Nurobod (2,1 %) va Jomboy (2,6 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1197,2 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 104,3 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar




Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Samarqand shahrida – 4023,7 ming so'm qayd etildi. 2017 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish 6,1 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi Paxtachi tumanida – 589,5 ming so'm kuzatildi, o'sish sur'ati 101,6 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (44,2 %), moliyaviy xizmatlar (30,4 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (18,7 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (11,7 %) bo'yicha yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Ma'lumot uchun: 2017 yil yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'ati - 106,5 %, moliyaviy xizmatlar 137,7 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari - 120,8 %, sog'linqni saqlash sohasidagi xizmatlar - 112,6 % ni tashkil etgan.

Viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: A.Abdullayev